

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Atom energiyasi agentligi

direktori

A. I. Axmedxadjayev



2025 yil “18” noyabr

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi
agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati**

1. Qo‘llanish doirasi

1.1 Ushbu Siyosat Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligining (keyingi o‘rinlarda “O‘zatom” agentligi) va tizimidagi tashkilotlarda halollik siyosatini ta‘minlash, ya‘ni xodimlar orasida va ularning jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog‘ida “O‘zatom” agentligi va tizimidagi tashkilotlar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka doir pozitsiyasini ifodalaydi.

1.2. Siyosat O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF–6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-iyundagi PF–6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari 2019-yil 27-maydagi PF–5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-son “Davlat fuqarolik

xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg'or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo'llashga doir tavsiyalar" xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.3 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari Siyosatni o'z faoliyati spetsifikatsiyasidan kelib chiqib qabul qiladi, o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar va mavjud resurslar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi.

1.4 Quyidagilar Atom energiyasi agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadi hisoblanadi:

"O'zatom" agentligi va tizimdagi tashkilotlar xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etilishi;

"O'zatom" agentligi va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish;

"O'zatom" agentligi va tizimidagi tashkilotlarda barcha faoliyat sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining "O'zatom" agentligi va tizimdagi tashkilotlarning faoliyati yuzasidan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

"O'zatom" agentligi va tizimdagi tashkilotlar xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;

korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash;

1.5 Mazkur Siyosat talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar "O'zatom" agentligining va tizimidagi tashkilotlarning barcha xodimlari uchun birdek amal qiladi.

1.6 "O'zatom" agentligiga va tizimidagi tashkilotlarga ishga kirayotgan har qanday shaxs mazkur Siyosat bilan imzo chekkan holda tanishishlari, uning qonun-qoidalariga rioya qilishi lozim.

2. Mazkur Siyosatning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

aloqador shaxslar – “O‘zatom” agentligi va tizimidagi tashkilotlar xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

davlat organlari va muassasalari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari (jumladan, vazirliklar, xizmatlar, agentlik, markazlar va boshqa idoralar) va ularning tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan yuridik shaxslar;

ish faoliyati yuzasidan mehmondo‘stlik belgilari – uchinchi shaxslarning hamkorlik o‘rnatish va/yoki uni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lgan, “O‘zatom” agentligi va tizimidagi tashkilotlar xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan, “O‘zatom” agentligi va tizimidagi tashkilotlar xodimlari manfaatlari yo‘lidagi harajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog‘liq harajatlari, transport harajatlari, yashash, ko‘ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog‘liq harajatlar va hokazo;

kontragent – “O‘zatom” agentligi va tizimidagi tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korruptsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy xavf-xatar – “O‘zatom” agentligi va tizimidagi tashkilotlar xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan “O‘zatom” agentligi va tizimidagi tashkilotlar nomidan yoki ularning manfaatlari yo‘lida korruptsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi;

korruptsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki

bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik – sodir etilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo'yilgan korrupsiya alomatlariga ega xatti-harakat;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi – tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va "O'zatom" agentligining va tizimidagi tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, "O'zatom" agentligi va tizimidagi tashkilotlar xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

kronizm (favoritizmning do'stona aloqalarga asoslangan ko'rinishi) – do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat va/yoki obro'sidan foydalanish;

mansabdor shaxs:

doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs,

xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

manfaatlar to'qnashuvi — "O'zatom" agentligi va tizimidagi tashkilotlar xodimlarining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

mahalliychilik – mahalliy manfatlarnigina ko‘zlab ish tutish. Bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e’tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

nepotizm (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko‘rinishi) - o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta’sir o‘tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, “O‘zatom” agentligi va tizim tashkiloti manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar – belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog‘liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta’minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me’yorlar hamda qoidalarda ko‘zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag‘lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

urug‘-aymoqchilik – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkiloti xodimining avlod-ajdodlari bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

favoritizm – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkiloti xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko‘tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta’til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvallarini ko‘rib chiqishda ketma-ketlikni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik;

xayriya (xayriya yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning “O‘zatom” agentligi va tizim tashkiloti uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va/yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag‘lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma’lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qo‘llab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon bo‘ladigan ixtiyoriy beg‘araz yordami;

xalqaro tashkilot – davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat’iy nazar tashkil etilgan har qanday xalqaro tashkilot, jumladan, masalan iqtisodiy integratsiya bo’yicha mintaqaviy tashkilotlar;

xodim – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkiloti bilan bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

homiylilik (homiylilik yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan “O‘zatom” agentligi va tizim tashkiloti (homiylilik qilinayotgan muassasalar)ga ular uchun ishlar bajarib berish, xizmatlar ko‘rsatish va hayriya maqsadlarida boshqa turdagi yordamlarni ko‘rsatish, mol-mulk, jumladan pul mablag‘lari taqdim etish bilan ifodalanadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari homiy oldida o‘zaro majburiyatlar yuzaga keladi;

shafelik – atom energiyasi va tizim tashkiloti xodimining lavozimi yuqoriroq bo‘lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

yaqin qarindoshlar – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug‘ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tamoyillari

3.1 Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi:

qonuniylilik – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha ilg‘or dunyo tajribasi, shuningdek “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari ichki hujjatlariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari o‘z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllariva ko‘rinishlariga murosasiz (toqatsiz) munosabatda bo‘ladi. “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari hodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo‘lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat’iyan taqiqlanadi;

ochiqlik va shaffoflik – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda);

korruptsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo‘lishi, tizimlili va yaxlitligi - korruptsiyaning oldini olish, korruptsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korruptsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korruptsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining barcha funksiyalari va yo‘nalishlarini qamrab olgan korruptsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

korruptsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarliligi - korruptsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni sodir etgan “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari o‘zining mavqei va egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korruptsiyaga qarshi kurash tizimini shakllantirishda ilm-fan taraqqiyotining so‘nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbariyatga murojaat qilish – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining har bir xodimi korruptsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma’lumotlar mavjud bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun “O‘zatom” agentligi agentligi direktoriga va tizim tashkiloti rahbariga hech qanday to‘siqsiz murojaat qilishi mumkin;

fuqarolik jamiyati vakillari bilan o‘zaro hamkorli – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb qiladi;

monitoring, tahlil va baholash: “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari davriy asosda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati monitoringi va tahlilini

amalga oshiradi, shuningdek uning samaradorlik va natijadorlik ko'rsatkichlarini baholaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish - korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari da korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to'xtovsiz ravishda oshirish choralari ko'riladi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari

4.1. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish

4.1.1 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari o'z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishi, o'z mansab va xizmat mavqeidan va "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari tasarrufidagi mol-mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo'lida foydalanmasligi va manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan saqlanishi lozim.

4.1.2 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko'tarilayotganda va rotatsiya qilinayotganda har yili va tegishli vaziyatlar/shart-sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiqlashi lozim.

4.1.3 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni ochiqlash jarayoni "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibi to'g'risidagi ichki idoraviy hujjatda belgilab qo'yiladi.

4.1.4 Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqasi ro'y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozim (masalan, tanlov savdolarini tashkil qilish, reytinglarni hisoblash va h.k.).

4.2. Ish yuzasidan sovg'alar va mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish

4.2.1 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'alar mehmondo'stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmat baho

qog'ozlar, kriptovalyuta, boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko'rinishidagi rag'bat vositalarini olish taqiqlanadi.

Bunda, konferensiyalar, seminarlar va turli shu kabi uchrashuvlarda taqdim etiladigan umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan oshmaydigan buyumlar bundan istisno hisoblanadi.

4.2.2 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o'rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog'liq bo'lmagan va xodim shaxsi bilan bog'liq deb e'tirof etilgan sovg'alarni berishda quyidagilarga rioya qilinadi:

sovg'a oluvchi uchun manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg'a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim;

sovg'a ochiq-oydin beriladi, sovg'a berilayotgani yashirilmaydi;

sovg'ani faqat umum e'tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi;

sovg'alar "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim;

sovg'ani berish chog'ida sovg'a berish uchun sabab bo'lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi;

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig'imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim;

"O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari bir xodimi ikkinchi xodimga sovg'a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.

4.2.3 Shubha (gumon)lardan holi bo'lish uchun har qanday bayramlar (jumladan, lekin cheklanmagan holda tug'ilgan kun, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan mazkur Siyosatning 4.2.1 va 4.2.2-bandlarida keltirib o'tilmagan boshqa davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, hamkorlar va kontragentlar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mazkur Siyosatning 4.2.1-bandida sanab o'tilgan sovg'alar va moddiy boyliklar olish taqiqlanadi.

4.2.4 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg'alar berish Agentlik direktori va tizim tashkiloti rahbari buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2.5 Sovg'a berish, uni qabul qilishning qonuniyligida shubha tug'ilgan taqdirda "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimi agentlikda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassisga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

4.3. "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi

4.3.1 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarining xalqaro va boshqa tashkilotlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari boshqa ichki hujjatlariga mos kelsa;

tadbir "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa;

tadbir "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o'tkazayotgan loyiha-tadqiqot tashkilotiga murojaat qilishni tavsiya qilish) ko'zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo'lmasligi lozim;

Tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqei uchun xatar tug'dirmasligi lozim;

Tadbir umume'tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko'ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim;

Tadbir mohiyati va qiymatiga ko'ra o'rinli bo'lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g'ayriodatiy bo'lmasligi va tez-tez takrorlanib turmasligi lozim.

4.3.2 Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari o'zi bo'lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

4.4. Kadrlar bilan bog'liq jarayonni tartibga solish (xodimlarni tanlash, lavozimini oshirish, moddiy rag'batlantirish)

4.4.1 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarini tanlash, attestatsiyadan o'tkazish va ularning faoliyatini baholash, jumladan mukofot, ustamalar va rag'batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish jarayoni barcha xodimlar

uchun shaffof, teng huquqli va xolis hisoblanib, mazkur Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi lozim.

4.4.2 Nomzodlarni “O‘zatom” agentligiga va tizim tashkilotlariga tanlash va tayinlash jarayoni Nomzodlarni “O‘zatom” agentligiga va tizim tashkilotlariga qabul qilish uchun tekshirish bo‘yicha qo‘llanma va agentlikning boshqa ichki hujjatlariga, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibiga muvofiq kompleks ravishda tekshirish bilan birga amalga oshiriladi.

4.4.3 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida xodimlarga oid masalalarda qaror qabul qiluvchi xodimlarning lavozimini oshirganda, lavozimga tayinlanganda, kadrlar zahirasi qo‘shganda va h.k.larda nomzod (xodim)larga har qanday asossiz imtiyozlar taqdim etishi taqiqlanadi.

4.4.4 Bo‘sh lavozimlarga saralab olish egallanayotgan lavozimga qo‘yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida yoki boshqa usul yordamida amalga oshirilishi lozim. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuqlariga asosiy e‘tibor qaratiladi.

4.4.5 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida xodimlar faoliyati samaradorligining muhim ko‘rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilishi va xodimlar uning asosida rag‘batlantirilishi lozim. Mazkur ko‘rsatkichlar xolis, shaffof va agentlik xodimlari tanishib chiqishi uchun ochiq bo‘lishi lozim.

4.5. Tekshiruvlar o‘tkazish va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari faoliyatini o‘rganish

4.5.1 Turli tekshiruvlar, o‘rganishlar, monitoring o‘tkazishda (keyingi o‘rinlarda – tekshiruv obyektlari) “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari:

manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymasligi;

tekshiruv, o‘rganish, monitoring obyekti tekshiruvi, o‘rganishi, monitoringini yakka o‘zi amalga oshirmasligi;

tekshiruv, o‘rganish, monitoring obyektiga tashrif buyuruvchilar yoki ularning vakillari tashkilot, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga shaxsan tashrif buyurganda ular bilan yolg‘iz qolmasligi;

yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o‘rganish o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini noto‘g‘ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qilish yoki boshqa davlat organlariga topshirish bilan qo‘rqitmasligi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti xodimlariga tahdid qilmasligi;

hujjatlarni so'rab olish va tekshiruv, o'rganish, monitoring predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi lozim;

tekshiruv, o'rganish, monitoring davomida aniqlangan har bir qoidabuzarlikning qonuniy va professional baholanishini ta'minlashi;

qoidabuzarliklarning video yoki fotoqaydini amalga oshirishi (o'rni kelganda), "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma'lumotlarni kiritishi;

agar tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti vakillari "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimiga aniqlangan qoidabuzarliklarni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar yoki xizmatlar taqdim etayotgan bo'lsa, bu haqida tekshiruv bo'yicha ishchi guruh rahbariga va "O'zatom" agentligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassisga tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasiga zudlik bilan xabar berishi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti vakillariga "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarining xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart.

4.5.2 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar, o'rganishlar va monitoring natijalari yuzasidan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.

4.6. Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash

4.6.1 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga zid har qanday to'lovlarni yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalb qilmaydi.

4.6.2 Kontragentlar bilan munosabatlarda "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

4.6.3 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinayotgan tovar va xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari ichki xujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.6.4. Kontragentlar bilan o‘zaro hamkorlikda “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari :

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida kontragentlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchliligi, jumladan u o‘tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilingan yoki qilinmaganligi, “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi;

potensial kontragent, jumladan xarid tartib-taomillari g‘olibini u bilan shartnoma matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo‘shish orqali o‘zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.

4.6.5 Vakolatli davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishda (masalan, litsenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, obyektlarni kelishishda va h.k) “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari hujjatlarni ko‘rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta‘minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo‘shimcha ma‘lumotlarni talab qiladi.

4.7. Xayriya va homiylik faoliyatining shaffof va samarali jarayonini ta‘minlash

4.7.1 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko‘rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash, shuningdek xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida ochiqlash bo‘yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

4.7.2 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo‘lmasligi va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki homiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta‘sir ko‘rsatmasligi lozim.

4.7.3 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

xayriya qiluvchi yoki homiy bilan albatta shartnoma tuzish va unda xayriya yoki homiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki homiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to'g'risida hisob berish usuli belgilab qo'yilishi lozim;

bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.

4.8. Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

4.8.1 Ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizasini o‘tkazishda “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari yuridik xizmati korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash maqsadida ekspertiza o‘tkazadi.

4.9. “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish

4.9.1 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari o‘z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradi (agar imkon mavjud bo‘lsa).

4.9.2 Davlat xaridlari doirasida tanlov savdolarini o‘tkazishda “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanadi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimida boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo‘llagan holda amalga oshiradi.

4.10. Tashkilotdagi faoliyatni videoqayd qilish va uning translyatsiyasi

4.10.1 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o‘rnatilib, ulardagi yozuvlar agentlikning mas’ul xodimlari tomonidan ko‘rib boriladi.

4.10.2 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari Internet tarmog‘idagi rasmiy saytlarida korrupsiya xavf-xatari yuqori bo‘lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyasi joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o‘tkazish, ularni testdan o‘tkazish, komissiyalar yig‘ilishlari va h.k.).

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari

5.1.1 Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim ichki hujjatlar mavjudligi

5.1.1 Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini:

mazkur Siyosat;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarining odob-ahloq qoidalari;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

5.1.2 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari rahbarlari xodimlarga oliy rahbarlik namunasini ko‘rsatishi lozim.

5.1.3 “O‘zatom” agentligi direktori, direktor o‘rinbosarlari va tizim tashkilotlari rahbarlari va o‘rinbosarlari, shuningdek “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari bo‘lim boshliqlari o‘ziga bo‘ysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatlarda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo‘lishi va shu orqali ularda korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

5.1.4 “O‘zatom” agentligi direktori, direktor o‘rinbosarlari va tizim tashkilotlari rahbarlari va o‘rinbosarlari, shuningdek bo‘lim boshliqlari rahbarlari “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo‘nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar va tartib-taomillarni joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish va amalga oshirishga nisbatan liderlikni namoyish qiladi.

5.2 Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash

5.2.1 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari o‘z faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 12-yanvardagi PQ–81-son, “Davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-maydagi PQ–240-son Qarorlari talablari va tashkiliy tuzilmalar funksiyalarining xususiyati, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabatlar, shuningdek “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalda oshiradi.

5.2.2 Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda bir martadan kam bo'lmagan vaqtda o'tkaziladi. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari "O'zatom" agentligi direktori va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korruptsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari korruptsiyaga qarshi dastur yoki yo'l xaritalarida aks ettiriladi.

5.3. Korruptsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul ichki nazorat tuzilmasi

5.3.1 "O'zatom" agentligida Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis va tizim tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tashkil etiladi.

5.3.2 "O'zatom" agentligida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis va tizim tashkilotlarida Korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi o'z faoliyatini Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi to'g'risidagi nizom asosida amalga oshiradi.

5.4.3 "O'zatom" agentligida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis va tizim tashkilotlarida Korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi korruptsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan ta'minlanadi.

5.4.4. "O'zatom" agentligi korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi tizim tashkilotlarida Korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyalari "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida ko'zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma'lumotlarning tizimli va o'z vaqtida yig'ilishi, tahlil qilinishi va aktallashtirilishi uchun javob beradi.

5.4.5 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida alohida Odob-ahloq komissiyalari faoliyat yuritadi.

61. "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari Odob-ahloq komissiyalari xodimlarning etik xulq-atvor qoidalari bilan belgilangan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish masalalarini ko'rib chiqadi, shuningdek "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizomda belgilangan

tartibda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.

6. “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi siyosati to‘g‘risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta’minlash

6.1. “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o‘zlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlarida joylashtiradi.

6.2 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari barcha kuch va imkoniyatlarini xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablar to‘g‘risida xabar berish va ularni tushuntirishga sarflaydi:

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo‘yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o‘qitilishi hamda testdan o‘tkazilishini ta’minlash;

yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatta tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha majburiy kurslarni tashkil etish;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlaridagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o‘qitishning qo‘shimcha dasturlari belgilanadi. O‘tkazilgan o‘quv kurslari, treninglarga oid ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida saqlanadi;

mavzuga doir audio va videoroliklar hamda “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa

axborot materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kompaniyalar tashkil qilish;

mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar tug'ilganda, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis tomonidan "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlariga maslahatlar berish;

tasdiqlangan reja asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis tomonidan "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni faol tarzda targ'ib qilish;

"O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritish. Mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari da yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritadi;

"O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish. Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari yangi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari barcha shartnomalariga kiritiladi (elektron do'kon, elektron auksion orqali xarid natijalari bo'yicha va davlat tabiiy monopoliyalari (pochta, elektr energiyasi, gaz ta'minoti, suv ta'minoti, temir yo'llari, havo yo'llari va h.k.) bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno). Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida yoki tashabbusga ko'ra kiritiladi.

6.2. Monitoring, nazorat va hisobdorlik

6.2.1 Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis atom energiyasi agentligi va tizim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yetarliligi va mutanosibligini baholanishini amalga oshiradi. O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishga doir tegishli chora-tadbirlar qabul qilinadi.

6.2.2 Monitoring va nazorat "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish

uslubiyotiga va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.2.3 Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim:

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari faoliyati funksiyalari va o‘ziga xos jihatlari, uning tashkiliy-funksional tuzilmasi hamda boshqa tashqi va ichki omillaridagi o‘zgarishlarning “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uni to‘g‘irlash zarurati, jumladan uning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligini ta’minlashga ta’siri tahlili;

O‘zbekiston Respublikasining faoliyatida qo‘llaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va hokimiyat organlari tavsiyalarining monitoringi;

xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimini yaratish va qo‘llab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalari monitoringi;

ommaviy axborot vositalarining “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari kontragentlari yoki hamkorlari to‘g‘risida xuddi shunday ma’lumotlar mavjudligi yuzasidan monitoring;

samarasiz nazoratlar va tartib-taomillarni aniqlash uchun ularni takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi tizim ishonchliligi va samaradorligini ta’minlash maqsadida tanlov asosida “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari ichki jarayonlari va funksiyalarini monitoring qilish;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi dasturi yoki yo‘l xaritasi bandlari bajarilishining to‘liqligi va samaradorligini monitoring qilish;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi talablar va joriy etilgan tartib-taomillarga rioya qilinishini tekshirish;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablar to‘g‘risida xabardorligini tekshirish;

6.2.4 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ichki auditini o‘tkazish, jumladan “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida belgilangan talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini nazorat qilish orqali tekshiriladi.

6.2.5 Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish tadbirlari yakunlari va natijalari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarida aks ettiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarini shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatda mustahkamlab qo‘yiladi.

6.3. Javobgarlik

6.3.1 Mazkur Siyosatga mos kelish va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi talablari va tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning o‘z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar mazkur Siyosat va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari boshqa ichki hujjatlarida belgilab qo‘yilgan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.

6.3.2 Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyiliga amal qilgan holda “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat’iyan man etiladi, ya’ni:

o‘z mansab va xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek xizmat mavqei va vakolatlarini suiste’mol qilish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foyda talab qilish, so‘rab olish yoki so‘rash, olishga rozilik berish yoki olish, shuningdek xodim tomonidan o‘z lavozim mavqeidan “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari qonuniy manfaatlariga zid ravishda, jumladan o‘zi va uchinchi shaxslar uchun noqonuniy foyda olish maqsadida noqonuniy foydalanish;

davlatning mansabdor shaxsi yoki boshqa har qanday shaxsga uning harakatlariga ta’sir o‘tkazish (harakatsizligini ta’minlash) va, yoki shaxs, jumladan “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari manfaatlarini yo‘lida noqonuniy afzalliklarni qo‘lga kiritish maqsadida lavozim majburiyatlarini noqonuniy tarzda bajarishga undash, noqonuniy foyda (pora, poraxo‘rlik) ni taklif qilish, va’da berish, bunga ijozat berish, taqdim etish;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish, olish yoki amalga oshirish;

poraxo‘rlik yoki tijoriy poraga olishda vositachilik qilish, jumladan pora oluvchiga noqonuniy foydani topshirish yoki pora oluvchi yoki beruvchiga ular o‘rtasida noqonuniy foydani olish va berish bo‘yicha kelishuvga erishishda yordam berish;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiya belgilari mavjud bo‘lgan yoki uni sodir etish, jumladan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi boshqa harakatlari yoki harakatsizligi.

6.3.3 Xodimlar o‘z rahbari va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ullariga ularni korrupsiyaviy harakatlarini sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog‘liq, shuningdek ularga ma‘lum bo‘lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid barcha holatlar to‘g‘risida xabar berishi lozim.

6.3.4 Korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik (toqatsizlik) tamoyilini hisobga olgan holda “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida xodimlar tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo‘yicha “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari da xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha reglament va boshqa ichki hujjatlarda ko‘zda tutilgan tartibda hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi.

6.3.5 Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va/yoki “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari boshqa ichki hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni buzgan “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari ichki hujjatlari doirasida va ularda ko‘zda tutilgan asoslar bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

6.3.6 Korrupsiyaviy harakatlar aniqlangan taqdirda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tuzilma ularni yuzaga kelish sabablari va imkoniyatlarini tahlil qiladi va doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradi.

6.3.7 Ichki tekshiruvlar natijalari doimiy ravishda “O‘zatom” agentligi direktori va tizim tashkilotlari rahbarlariga taqdim etiladi.

6.3.8 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash va tergov qilish uchun huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

7. Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar

7.1 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlarining harakatlari qonuniyligi yoki etikaga mosligi yuzasidan shubha, korrupsiyaviy harakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog‘liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli

gumonlar yuzaga kelgan taqdirda ular haqida “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari umumfoydalanuvdagi aloqa kanallari orqali ochiq xabar berilishi mumkin.

7.2 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari o‘z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim etgan shaxsga doir ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlaydi, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

7.3 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari o‘z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo‘lishi mumkinligi haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo‘shatish, lavozimini tushirish, diskriminatsiya, zulm o‘tkazish, ta’qib qilish singari o‘ch olish harakatlariga yo‘l qo‘yilmasligini kafolatlaydi.

7.4 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari mas’ul shaxslari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ularni ko‘rib chiqishga oid ichki hujjatlar va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari boshqa ichki hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida va xolisona ko‘rib chiqiladi.

7.5 “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan ataylab yolg‘on xabar yuborish mazkur Siyosat talablarini buzish va etikaga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi, bu haqida xabar bergan shaxs esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

8. Qayta ko‘rib chiqish va o‘zgarishlar kiritish tartibi

8.1 Mazkur Siyosat quyidagi hollarda qayta ko‘rib chiqilishi va to‘g‘irlanishi mumkin:

mavjud korrupsiyaga qarshi siyosatlar va tartib-taomillarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiruvchi O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi qonunchiligi o‘zgarganda;

samarasiz korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va tartib-taomillari aniqlanganda, shuningdek “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelganda;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari tashkiliy tuzilmasi va/yoki funksiyalarining o‘ziga xos jihatlari o‘zgarganda va h.k.